Ish beruvchi: “Uzbekistan Airways” AJ aviakompaniyasi.
Bo‘linma: Yerdagi xizmatni tashkillashtirish departamentining (YXTD) Yerdagi xizmat bo‘limi (YXB).
Stavka: 1,00.
Oylik maosh: shtat jadvaliga muvofiq.
Talab etilgan ish tajribasi: 3 yildan kam emas.
Bandlik shakli: to‘liq bandlik.
Ish rejimi: to‘liq ish kuni.

**Talablari:**

- Fuqaroligi: O‘zbekiston Respublikasi.
- Tugallangan oliy ma’lumot: fuqaro aviatsiyasi mutaxassisliklari bo‘yicha.
- Lavozim vazifalarini bajarishga yetarli darajada o‘zbek, rus va ingliz tillarini bilish.
- Shaxsiy kompyuterdan va ofis texnikasidan bemalol foydalanish darajasiga ega bo‘lish.
- Fuqaro aviatsiyasi sohasi bo‘yicha fundamental bilimlarga ega bo‘lish.
- Yo‘lovchi tashish va havo kemalariga yerda xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari va tartiblarini bilish.
- “Uzbekistan Airways” AJning parvozlar xavfsizligini ta’minlash sohasidagi siyosati, “Uzbekistan Airways” AJning sifat sohasidagi siyosati” PXTTning asosiy tamoyillarini bilish.
- Ingliz tilini bilishi to‘g‘risidagi sertifikat – ma’qullanadi.

**Vazifalari:**

- Lavozim yo‘riqnomasida belgilangan talablarni bajarish, shuningdek:
- Tashqi xizmat ko‘rsatuvchi pudratchilarning MST va IOSA standartlariga muvofiqligini tekshirishda ishtirok etish.
- Parvozlar xavfsizligi ko‘rsatkichlari tahlili hisobini yuritish.
- Normativ-huquqiy hujjatlarni yanada tartibga solish va takomillashtirish maqsadida havo kemalariga yerda ishlov berish tartib-qoidalarini tartibga soluvchi me’yoriy va yo‘riqnoma hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etish.
- Shartnomalar bo‘yicha muvofiqlashda ishtirok etish.
- Faoliyatining mohiyati bo‘yicha hisobot va monitoring olib borish.
- YXTDning rejalari va tahlillarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

- “Uzbekistan Airways” AJ havo kemalariga, yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatish sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlar va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
- Vakolatxonalarga uslubiy va amaliy yordam koʻrsatish.
- Yerdagi xizmatlarini koʻrsatuvchi servis kompaniyalari bilan muzokaralar olib borish.
- Xizmat koʻrsatish sifatini oshirish, zarur hujjatlar va qarorlarni talab qilish masalalari boʻyicha IATA, IOSA, ICAO bilan oʻzaro hamkorlik qilish.
- Zarur xizmat maʼlumotlarini toʻplash.
- Parvozlar monitoringi natijalari boʻyicha hisobot yuritish.
- Ish vazifalari doirasida kiruvchi yozishmalarni koʻrib chiqish va ularga javob berish.
- Va boshqalar.

**Ish sharoitlari:**

- Rasmiy ishga joylashish.
- 5 kunlik ish haftasi, soat 09:00 dan 18:00 gacha.
- Oʻz vaqtida, barqaror ish haqi.
- Sinov muddati: 3 oy.

**Asosiy koʻnikmalar:**

- Oʻzbek tili – C1 – ilgʻor daraja
- Rus tili – C1 – Ilgʻor daraja
- Ingliz tili – C1 – ilgʻor daraja
- MST standartlari
- Yoʻlovchilarga xizmat koʻrsatish sifati
- Havo kemalariga xizmat koʻrsatish sifati
- IOSA
- IATA
- ICAO
- Texnik hisobotlar
- Shartnomalar tuzish
- Ishbilarmonlik aloqalari
- Muzokaralar olib borish
- Ishbilarmonlik yozishmalari

**Rezyume ko‘rib chiqish uchun quyidagi elektron manzilga yuborilsin:**

Erkin.Alimov@uzairways.com